INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA "OILA" KONSEPTUAL MAYDONINING KOGNITIV-STRUKTURAL TASHKIL ETILISHI: YADROVIY VA PERIFERIK SATHLAR TAHLILI

Shakirova Nodiraxon Murodjon qizi
Zahiriddin Muhammad Bobur
nomidagi Andijon Davlat Universiteti
mustaqil tadqiqotchisi
nodiraxonshakirova03@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi "Oila" konseptual maydonining kognitiv-struktural tashkil etilishi chog'ishtirma-qiyosiy va kognitiv tilshunoslik prizmasi orqali tadqiq etiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi har ikki til egalarining mental-lingvistik tasavvurida "Oila" konseptining uch bosqichli modelini — yadro (nucleus), perinuklear zona hamda periferik sathini belgilash va ularning milliy-madaniyatga xos xususiyatlarini aniqlashdan iborat. Ishda leksikografik, komponentli va lingvokulturologik tahlil usullaridan foydalanilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, har ikki tilda yadroviy sath bir xil leksik-semantik asosga ega bo'lsada, perinuklear va periferik zonalar (paremiyalar, frazeologizmlar va metaforalar) darajasida milliy qadriyatlar, ijtimoiy tuzilma va madaniyatlararo tafovutlar yorqin namoyon bo'ladi. Tadqiqot xulosalari kognitiv tilshunoslik, madaniyatlararo muloqot va tarjimashunoslik sohasi uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: konseptual maydon, "Oila" konsepti, kognitiv tilshunoslik, yadroviy zona, perinuklear zona, periferiya, lingvokulturoLogiya, chog'ishtirma tahlil, paremiyalar.

КОГНИТИВНО-СТРУКТУРНАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ КОНЦЕПТУАЛЬНОГО ПОЛЯ «СЕМЬЯ» В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ: АНАЛИЗ ЯДЕРНОГО И ПЕРИФЕРИЙНОГО УРОВНЕЙ

АННОТАЦИЯ

В данной статье исследуется когнитивно-структурная организация концептуального поля «Семья» в английском и узбекском языках сквозь призму сопоставительного и когнитивного языкознания. Основная цель исследования заключается в определении трехкомпонентной модели концепта «Семья» — ядра, перинуклеарной зоны и периферийного уровня в ментально-лингвистическом восприятии носителей обоих языков, а также в выявлении их национально-культурной специфики. В работе использованы методы лексикографического, компонентного и лингвокультурологического анализа. Результаты показывают, что при сходстве лексико-семантического базиса ядерного уровня, на уровнях перинуклеарной и периферийной зон (паремии, фразеологизмы, метафоры) ярко проявляются межкультурные различия, обусловленные национальными ценностями и социальной структурой. Выводы исследования имеют практическую ценность для когнитивной лингвистики, межкультурной коммуникации и теории перевода.

Ключевые слова: концептуальное поле, концепт «Семья», когнитивная лингвистика, ядерная зона, перинуклеарная зона, периферия, лингвокультурология, сопоставительный анализ, паремии.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

COGNITIVE-STRUCTURAL ORGANIZATION OF THE "FAMILY" CONCEPTUAL FIELD IN ENGLISH AND UZBEK: ANALYZING NUCLEAR AND PERIPHERAL LAYERS

ABSTRACT

This article investigates the cognitive-structural organization of the conceptual field "Family" in the English and Uzbek languages through the prism of comparative and cognitive linguistics. The primary objective of the research is to map the three-tier model of the "Family" concept — comprising the nucleus, perinuclear zone, and peripheral layer — in the mental-linguistic worldview of both speech communities, thereby highlighting their national and cultural specificity. The study employs lexicographical, component, and linguaculturological analytical methods. The findings indicate that while the nuclear layer shares a universal lexico-semantic foundation in both languages, significant intercultural variations emerge at the perinuclear and peripheral levels (proverbs, phraseological units, and metaphors), reflecting distinct cultural values and social structures. The insights gained offer practical value for cognitive linguistics, intercultural communication, and translation studies.

Keywords: conceptual field, concept "Family", cognitive linguistics, nuclear zone, perinuclear zone, periphery, linguaculturology, comparative analysis, paremiology.

KIRISH

Zamonaviy kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiyada inson tafakkuridagi tayanch tushunchalarni mental-lingvistik struktura (konseptual maydon) sifatida tadqiq etish etakchi yo'nalishlardan biriga aylandi. Har bir xalqning olamni lisoniy anglash va idrok etish xususiyatlari uning eng muhim kognitiv tuzilmalarida namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, "Oila" konsepti har qanday jamiyatning ijtimoiy-madaniyatli poydevori, sotsial va ma'naviy qadriyatlarini o'zida jamlagan universal hamda milliy-spetsifik kognitiv birlik hisoblanadi. Maydon nazariyasining shakllanishi G'arb tilshunosligidagi semantik maydon haqidagi qarashlar bilan bog'liq [1]. Leksik birliklar yakka holda emas, balki tushunchaviy maydon tarkibida amal qilishini asoslab, so'z ma'nosi uning o'ziga yaqin birliklar bilan munosabati, semantik chegaralari va tizimdagi mavqei orqali aniqlanishini ilgari surgan edi[1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Oila konsepti antropologik, semantik va leksikografik jihatdan universal hodisadir. Uning universalligi uch dalil bilan tasdiqlanadi: qarindoshlik munosabatlarining barcha jamiyatlarda nomlanishi; ota, ona, o'g'il, qiz singari yadro birliklarining eng ko'hna yozma yodgorliklarda qayd etilishi; ushbu leksemalarning semantik ibtidoiylar qatoriga kirishi. Universallik konseptning mavjudligiga taalluqli bo'lib, uning ichki tuzilishiga daxldor emas – milliy-madaniy xoslanish mana shu tuzilish sathidan boshlanadi [2].

Konseptual mazmunning til belgisi orqali tashqi ifoda shakliga ko'chishi, ya'ni tafakkurda mavjud bo'lgan ma'no tuzilmasining fonetik, grafik, leksik, grammatik vositalar yordamida lisoniy qiyofa kasb etishi verbalizatsiya jarayonidir[2]. Bu jarayonda konsept bevosita "nom"ga aylanish bilan cheklanmaydi; u so'z, birikma, frazeologizm, metafora, maqol, matn parchasi va diskursiv ssenariylar orqali turli darajada yuzaga chiqadi[3]. Kognitiv tilshunoslikning g'arb an'anasida mazkur hodisa ko'pincha simvollashuv

[1] Trier J. Der deutsche Wortschatz im Sinnbezirk des Verstandes: Die Geschichte eines sprachlichen Feldes. – Heidelberg: Carl Winter, 1931. – S. 1–26.
[2] Попова З.Д., Стернин И.А. Когнитивная лингвистика. Ko'rsatilgan manba. – С. 38–39.
[3] Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. Ko'rsatilgan manba. – С. 107–116.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

nazariyasi doirasida izohlanadi. R.Langaker til birligini konseptual mazmun bilan fonologik shaklning shartli, ammo barqarorlashgan simvolik juftligi sifatida talqin etar ekan, lisoniy belgi ortida oddiy tovushlar ketma-ketligi emas, balki ma'lum bir idrok modeli, tajriba parchasi va konseptual tuzilma turganini ko'rsatadi[4]. Z.D. Popova va I.A.Sternin konsept hech qachon to'liq verballashmasligini, til faqat kommunikativ jihatdan zarur qismini ifodalay olishini ta'kidlaydi[5]; Y.S.Kubryakova esa verbalizatsiyani dunyoni til orqali o'zlashtirish faoliyatining markaziy bosqichi deb baholaydi[6]. O'zbek tilshunosligida bu tushuncha kognitiv yo'nalishdagi tadqiqotlar orqali muomalaga kirgan[7]. Biz verbalizatsiyani ana shu uch an'anaga tayangan holda konseptni til tizimining barcha sathlariga taqsimlash jarayoni sifatida talqin qilamiz [3].

Frazeologik tagsathida esa turg'un birikma va iboralar konseptning obrazli, baholovchi hamda pragmatik qirralarini yuzaga chiqaradi[8]; ro'zg'or tebratmoq, to bring home the bacon kabi birliklarda oilaviy hayot mehnat, ta'minot va mas'uliyat bilan bog'langan holda konseptuallashadi. Paremiologik fond maqol va matallarda mujassamlangan jamoaviy hukm, qadriyat mezoni hamda madaniy xotirani qamrab oladi[9]. Grammatik sathda konseptual mazmun morfologik va sintaktik shakllarga singadi: o'zbek tilidagi ota-ona singari juft so'zlar oilaviy yaxlitlikni, oilamiz shaklidagi egalik ko'rsatkichi guruhiy mansublikni, *-jon* affiksi esa mehr, yaqinlik va emotsional bahoni grammatik vosita orqali ifodalaydi [4, 5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Leksik paradigmatikaning asosiy munosabat turlarini J.Layons va D.Kruz tizimlashtirganlar: ma'nodosh birliklarni birlashtiruvchi sinonimiya, qarama-qarshi ma'nolarni bog'lovchi antonimiya, tur va jins o'rtasidagi ierarxik aloqani ifodalovchi giponimiya, qism va butun nisbatini ko'rsatuvchi meronimiya hamda bir munosabatni turli nuqtayi nazardan nomlaydigan konversivlik kiradi[10].

Paradigmatik tahlil sintagmatikadan butunlay ajralmasligini ham qayd etib o'tamiz: paradigma birligining qiymati uning birikuv imkoniyatlari – kollokatsiyalari bilan birga ochiladi. *Oila qurmoq* deymiz-u, *oila yasamoq* demaymiz; ingliz tilida *to start a family* me'yoriy, *to begin a family* noodatiy, ya'ni tanlov o'qidagi har birlik o'z qat'iy qo'shnilariga ega[11]. Kollokatsion farqlar sinonimlarni ajratishning ishonchli mezoni: turmush faqat qurmoq, kechirmoq fe'llari bilan, ro'zg'or esa tebratmoq, yuritmoq bilan birikadi – ikki sinonimning birikuv ro'yxati kesishmaydi [6, 7].

Antonimik munosabatlarni tahlil etishda oppozitsiyaning ichki semantik tuzilishini ham farqlaymiz. Komplementar juftliklarda a'zolardan birining inkori muqobil a'zoning tasdig'ini taqozo etadi, shu sabab ular orasida oraliq holat mavjud bo'lmaydi [8]. Gradual antonimlar qarama-qarshi qutblar o'rtasidagi

---

[4] Langacker R.W. Foundations of Cognitive Grammar. Vol. I. Ko'rsatilgan manba. – P. 11–12, 76–86.
[5] Попова З.Д., Стернин И.А. Когнитивная лингвистика. Ko'rsatilgan manba. – С. 38–39, 66–71.
[6] Кубрякова Е.С. Язык и знание: На пути получения знаний о языке. – М.: Языки славянской культуры, 2004. – С. 303–316.
[7] Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. Ko'rsatilgan manba. – B. 34–52; Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. Ko'rsatilgan manba. – B. 39–47.
[8] Телия В.Н. Русская фразеология. Ko'rsatilgan manba. – С. 214–237.
[9] Пермяков Г.Л. Основы структурной паремиологии. Ko'rsatilgan manba. – С. 11–33.
[10] Lyons J. Semantics. Vol. I. – Cambridge: Cambridge University Press, 1977. – P. 270–317; Cruse D.A. Lexical Semantics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1986. – P. 84–264.
[11] Firth J.R. A Synopsis of Linguistic Theory, 1930–1955 // Studies in Linguistic Analysis. – Oxford: Basil Blackwell, 1957. – P. 11.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

darajalanish maydoniga tayanadi; belgi mutlaq tarzda emas, turli intensivlik bosqichlari orqali voqelanadi. Vektor juftliklar esa bir jarayon, harakat yoki munosabatning qarama-qarshi yo'nalishlarini nomlaydi[12].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ingliz tilidagi sinonimik qatorlar ko'proq tarixan va uzual jihatdan barqarorlashgan leksik variantlarga tayansa, o'zbek tilida sinonimik maydon derivatsion jihatdan ochiqroq tus oladi. *Onaginam, onajonim, oyijonim* singari shakllarning erkin hosil qilinishi emotsional munosabatni morfologik vositalar orqali bosqichma-bosqich kuchaytirish imkonini ko'rsatadi [9]. Ana shu tafovut keyingi bo'limda batafsil yoritiladigan tipologik nisbatning dastlabki ko'rinishidir: o'zbek tilida affiksatsiya qarindoshlik nomlarining ekspressiv va baholovchi imkoniyatlarini kengaytirsa, ingliz tilida shu vazifa ko'proq mustaqil leksik variantlar hamda analitik birikmalar zimmasiga tushadi[13].

O'zbek tilida mazkur paradigma leksik, dialektal va derivatsion vositalarning tutashuvi asosida shakllanadi [10]. *Buvi* betaraf nominativ markaz vazifasini bajaradi; *momo, ena, bibi* birliklari hududiy qo'llanish, an'anaviy ehtirom yoki avlodlararo yaqinlik ma'nolarini yuzaga chiqaradi; *buvijon* shakli esa mehr va erkalash semantikasini affiksal vosita orqali kuchaytiradi. *Bobo, buva, bobojon, otaxon* qatori ham shu tamoyilga bo'ysunadi: unda betaraf nomlash, shevaga xos variant, emotsional yaqinlik va ehtiromiy umumlashtirish ma'nolari o'zaro farqlanadi[14].

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, ingliz tilidagi *FAMILY* hamda o'zbek tilidagi *OILA* leksemalarini uslubiy betaraflik, faol qo'llanish, lug'aviy barqarorlik va derivatsion mahsuldorlik belgilariga tayangan holda mazkur leksik-semantik maydonning yadrosi sifatida belgilaymiz. Yadrooldi (perinuklear) sath miqdor jihatidan o'zaro yaqinlik ko'rsatsa-da, uning formal tarkibida sezilarli tipologik tafovut namoyon bo'ladi: ingliz tilida analitik birikmalar yetakchi o'rin egallaydi, o'zbek tilida esa affiksal hosilalar, fe'lli qurilmalar hamda otli birikmalar ustunlik kasb etadi. Periferik sath har ikki tilda o'xshash semalar asosida tarmoqlanadi; biroq o'zbek tilida hududiy-dialektal birliklar ham mustaqil semantik yo'nalishga ega. Shu mezonga tayangan holda, mazkur tafovutni konseptual mazmundan emas, balki ingliz tilining analitik va o'zbek tilining agglyutinativ qurilishidan kelib chiqadigan tipologik hodisa sifatida talqin qilamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO 'YXATI:

1.Trier J. Der deutsche Wortschatz im Sinnbezirk des Verstandes: Die Geschichte eines sprachlichen Feldes. – Heidelberg: Carl Winter, 1931. – S. 1–26.
2.Попова З.Д., Стернин И.А. Когнитивная лингвистика.– С. 38–39.
3.Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс.– С. 107–116.
4. Langacker R.W. Foundations of Cognitive Grammar. Vol. I.– P. 11–12, 76–86.
5. Попова З.Д., Стернин И.А. Когнитивная лингвистика.– С. 38–39, 66–71.
6. Кубрякова Е.С. Язык и знание: На пути получения знаний о языке. – М.: Языки славянской культуры, 2004. – С. 303–316.

[12] Cruse D.A. Lexical Semantics. Ko'rsatilgan manba. – P. 197–264.

[13] Shakirova N. M., Shokirov Sh. B. Development of science: The concept of family in english and uzbek linguocultures: a comparative linguocultural // Development of science. – 2026. – Vol. 6, № 1.

[14] Shakirova N.M. Lexical-semantic verbalization of the family concept in English and Uzbek // Modern Digital Technologies in Education: Problems and Prospects (International Online Conference). – 2026. – P. 49–53.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

7.Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik.– B. 34–52; Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. Ko'rsatilgan manba. – B. 39–47.
8.Телия В.Н. Русская фразеология.– С. 214–237.
9. Пермяков Г.Л. Основы структурной паремиологии.– С. 11–33.
10. Lyons J. Semantics. Vol. I. – Cambridge: Cambridge University Press, 1977. – P. 270–317; Cruse D.A. Lexical Semantics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1986. – P. 84–264.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.